

**BANKLARDA MUAMMOLI KREDITLAR BILAN ISHLASH SAMARADORLIGINI
OSHIRISH YO'LLARI (HAMKORBANK ATB MISOLIDA)**

Sultonov Doniyor Ro'ziboyevich

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17270808>

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqola tijorat banklarida muammoli kreditlar (non-performing loans – NPL) bilan ishlash samaradorligini oshirish masalasiga bag'ishlangan bo'lib, "Hamkorbank" ATB misolida tahlil qilingan. Muammoli kreditlar banklarning moliyaviy barqarorligi, rentabelligi va mijozlar ishonchiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois ularni boshqarish va qaytarilishini ta'minlash bugungi kunda banklar oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biridir. Maqolada muammoli kreditlarning paydo bo'lish sabablari, "Hamkorbank" ATBda mavjud amaliyot, xalqaro tajriba va ilg'or yondashuvlar o'rganilgan.

Shuningdek, muammoli kreditlarni kamaytirishning samarali mexanizmlari sifatida kredit tahlilini chuqurlashtirish, raqamli monitoring tizimlarini joriy etish, restrukturizatsiya jarayonini soddalashtirish va kredit sug'urtasidan keng foydalanish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari banklar faoliyatida risklarni kamaytirish, moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash hamda mijozlar bilan hamkorlikni yanada kuchaytirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Muammoli kreditlar, kredit riski, qaytarilish darajasi, restrukturizatsiya, kredit portfeli, tijorat banklari, moliyaviy barqarorlik, "Hamkorbank" ATB.

Abstract. This scientific article is devoted to the issue of increasing the efficiency of work with problem loans (non-performing loans – NPL) in commercial banks, analyzed on the example of "Hamkorbank" JSCB. Problem loans have a negative impact on the financial stability, profitability and customer confidence of banks. Therefore, their management and ensuring their repayment is one of the most urgent tasks facing banks today. The article studies the causes of the emergence of problem loans, the current practice at "Hamkorbank" JSCB, international experience and advanced approaches. Also, proposals are developed to deepen credit analysis, introduce digital monitoring systems, simplify the restructuring process and widely use credit insurance as effective mechanisms for reducing problem loans. The results of the research will serve to reduce risks in the activities of banks, strengthen financial stability and further strengthen cooperation with customers.

Keywords: Problem loans, credit risk, recovery rate, restructuring, loan portfolio, commercial banks, financial stability, Hamkorbank JSCB.

Kirish: Tijorat banklari faoliyatida kredit operatsiyalari asosiy daromad manbai hisoblanadi. Shu bilan birga, ular banklar uchun eng yuqori risk darajasiga ega faoliyat turi sanaladi. Kreditlarning o'z vaqtida qaytarilmasligi, qarzdorlar tomonidan to'lov intizomining buzilishi yoki iqtisodiy sharoitlar ta'siri ostida yuzaga keladigan muammolar natijasida banklarda muammoli kreditlar (non-performing loans – NPL) paydo bo'ladi. Bu holat nafaqat bankning moliyaviy barqarorligi, balki butun moliya tizimiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekiston bank tizimida oxirgi yillarda muammoli kreditlarni kamaytirish bo'yicha sezilarli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, kreditlash siyosatini qat'iylashtirish, kredit riskini baholash tizimlarini takomillashtirish, qarzdorlarni qayta restrukturizatsiya qilish va ijro

mexanizmlarini kuchaytirish bo'yicha choralar ko'rilmogda. Shunga qaramay, muammoli kreditlar hajmining ortishi hamon dolzarb masala bo'lib qolmogda. Ayniqsa, kichik biznes va jismoniy shaxslarga berilgan kreditlarda qaytarilish intizomi banklar uchun sinov bo'lib qolmogda.

Mazkur tadqiqot "Hamkorbank" ATB misolida muammoli kreditlar bilan ishlash samaradorligini oshirish yo'llarini tahlil qiladi. Bank kredit portfelida muammoli qarzlarning shakllanishi, ularni qaytarishdagi muammolar va mavjud mexanizmlar o'rganiladi. Shuningdek, xalqaro amaliyot va ilg'or tajribalar asosida muammoli kreditlarni kamaytirish, qarzidorlar bilan ishlash jarayonlarini soddalashtirish va raqamli texnologiyalarni joriy etish bo'yicha takliflar ishlab chiqiladi. Ushbu tadqiqot natijalari nafaqat "Hamkorbank" ATB, balki butun bank tizimi uchun amaliy ahamiyat kasb etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. O'zbekiston olimlari muammoli kreditlar masalasini iqtisodiy o'sish, bank tizimining barqarorligi va kredit siyosati bilan bog'liq holda o'rganib kelmogda. Isakov (2024) tijorat banklarida muammoli kreditlar hajmiga ichki ko'rsatkichlar – leverage, kredit-depozit nisbati va foiz daromadlari, shuningdek, YaIM o'sishi va valyuta kursi kabi tashqi omillar qanday ta'sir ko'rsatishini dinamik panel tahlili orqali isbotladi. Shuningdek, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti olimlari VAR modeli asosida olib borgan izlanishlarida muammoli kreditlarning ko'payishi milliy iqtisodiyotdagi inflyatsiya darajasi va pul-kredit siyosatiga bevosita bog'liqligini ko'rsatib berishdi. Bu natijalar mamlakat banklarida makroiqtisodiy sharoitlarni inobatga olgan holda kredit riskini boshqarish zarurligini ta'kidlaydi.

Rossiya va Yevropa olimlari kredit portfeli sifatini baholashda muammoli kreditlar ulushini asosiy ko'rsatkich sifatida belgilashgan. Rossiyada olib borilgan tadqiqotlar (2024) korporativ kreditlardagi NPL ulushi o'rtacha 4,8% ni, iste'mol kreditlarida esa 7,9% ni tashkil etayotganini qayd etdi. Shu bilan birga, Avgouleas va Goodhart (2017) Yevropa bank tizimi bo'yicha "bad bank" (AMC – Asset Management Company) modeli yordamida muammoli kreditlarni alohida tashkilotlar orqali boshqarish samarali bo'lishini taklif qilgan. ESRB (2017) ham muammoli kreditlarni hal qilishda zaxira yaratish, ikkilamchi bozorlarda sotish, tashqi servicing kompaniyalari va bankrotlik tizimini kuchaytirish muhimligini ko'rsatgan.

Osiyo va AQSh olimlari muammoli kreditlar bilan ishlashda xalqaro saboqlarni ilgari surishgan. Xitoy bo'yicha Management Science jurnalida (2024) chop etilgan tadqiqot muammoli kreditlarni sotib olish jarayonlarining ayrim hollarda ularni vaqtincha yashirishga xizmat qilishini ta'kidlagan. Fiji misolida Chand, Kumar va Stauvermann (2023) bank-spetsifik omillar – kapital yetarliligi va o'lcham muammoli kreditlarga sezilarli ta'sir ko'rsatishini ko'rsatgan. Hindistonda Mishra va hammualliflar (2021) iqtisodiy o'sish sekinlashuvi va real sektor shoklari NPLni keskin oshirishini, shu sababli prudensial kapital yostiqlarini kuchaytirish zarurligini ta'kidlab o'tgan. Shu bilan birga, AQSh va Yevropa bank tizimi bo'yicha olib borilgan IMF va ECB tadqiqotlari (2017–2020) muammoli kreditlarni erta aniqlash, restrukturalizatsiya jarayonini tezlashtirish va shaffof hisobotlarni joriy qilish eng muhim yechim ekanini tasdiqlagan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotning metodologik asosida muammoli kreditlarning iqtisodiy mohiyatini va bank faoliyatidagi ahamiyatini nazariy jihatdan tahlil qilish yotadi. Shu maqsadda xalqaro ilmiy adabiyotlar, Basel qo'mitasi tamoyillari, Jahon banki va Xalqaro valyuta

jamgʻarmasi tavsiyalari oʻrganildi. Bundan tashqari, Oʻzbekiston Respublikasida qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar hamda tijorat banklari faoliyatini tartibga soluvchi meʼyoriy hujjatlar asos sifatida qabul qilindi. Ushbu yondashuv muammoli kreditlarni nazariy asosda toʻliq yoritish imkonini berdi.

Empirik qismda “Hamkorbank” ATB misolida muammoli kreditlar bilan ishlash jarayonlari tahlil qilindi. Bankning 2020–2024-yillarda eʼlon qilingan yillik moliyaviy hisobotlari, aktiv va passivlar tarkibi, kredit portfeli sifati hamda qaytarilmagan kreditlar hajmi statistik usullar yordamida koʻrib chiqildi. Dinamik tahlil orqali muammoli kreditlarning vaqt boʻyicha oʻzgarishi, ularga taʼsir etuvchi ichki va tashqi omillar aniqlashga harakat qilindi. Shuningdek, bank amaliyotida qoʻllanilgan restrukturizatsiya va undirish mexanizmlarining samaradorligi baholandi.

Tadqiqotda taqqoslama va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi.

Xalqaro tajriba – Janubiy Koreya, Malayziya, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari va Rossiya tajribasi bilan Oʻzbekiston sharoitida qoʻllanilayotgan mexanizmlar qiyoslandi. Bundan tashqari, muammoli kreditlarning kamayishi va bank moliyaviy barqarorligining oshishi oʻrtasidagi bogʻliqlikni aniqlash uchun korrelyatsion tahlildan ham foydalanildi. Ushbu metodologik yondashuv tadqiqot natijalarini ilmiy asoslangan va amaliy ahamiyatga ega boʻlishini taʼminladi.

Tahlil va natijalar. Birinchidan, muammoli kreditlar (non-performing loans – NPL) banklar moliyaviy barqarorligiga eng katta taʼsir koʻrsatadigan omillardan biridir. “Hamkorbank” ATBda ham kredit portfelinin sifati va qaytarilish intizomi bankning foydaliligi hamda aktivlari barqarorligini belgilab beradi. 2020–2024-yillar davomida bank kredit portfelida muammoli kreditlarning ulushi sezilarli oʻzgarishlarga uchragan. Bu davrda makroiqtisodiy sharoit, valyuta kursining tebranishlari, inflyatsiya darajasi va pandemiya oqibatlari ham muammoli kreditlar hajmining shakllanishiga bevosita taʼsir koʻrsatgan.

1-jadval

“Hamkorbank” ATB kredit portfeli va muammoli kreditlar hajmi (2020–2024-yillar)

Yil	Umumiy kredit portfeli (mlrd soʻm)	Muammoli kreditlar (mlrd soʻm)	NPL ulushi (%)
2020	18 450	620	3,4
2021	22 780	890	3,9
2022	27 300	1 120	4,1
2023	32 560	1 350	4,2
2024	38 200	1 290	3,4

Manba: <https://hamkorbank.uz/> maʼlumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Jadvaldan koʻrinib turibdiki, 2020–2023-yillarda muammoli kreditlar hajmi yildan-yilga oʻsib borgan, 2024-yilda esa qayta restrukturizatsiya va nazorat kuchaytirilishi natijasida ularning ulushi keskin pasaygan. Bu esa, bankning muammoli kreditlar bilan ishlashdagi yangi strategiyasi – qarzdorlikni qayta grafigini belgilash, kreditlarni sugʻurtalash va mijozlar bilan muzokaralarni kuchaytirish samarali natija berganini koʻrsatadi.

“Hamkorbank” ATBda muammoli kreditlarning tarkibiy tuzilishi ham tahlil qilindi. Unda kichik biznes, jismoniy shaxslar va korporativ mijozlar kreditlari oʻrtasidagi farq yaqqol namoyon boʻladi.

Ayniqsa, pandemiya yillarida (2020–2021) jismoniy shaxslar tomonidan o‘z vaqtida to‘lovlarning amalga oshirilmasligi bankning NPL ko‘rsatkichiga katta ta’sir ko‘rsatgan. Keyingi yillarda esa kichik biznes kreditlarida ham muammolar ko‘paygan.

2-jadval

“Hamkorbank” ATB muammoli kreditlari tarkibi (2020–2024-yillar, mlrd so‘mda)

Yil	Jismoniy shaxslar	Kichik biznes	Korporativ mijozlar	Jami muammoli kreditlar
2020	290	220	110	620
2021	400	320	170	890
2022	500	430	190	1 120
2023	590	520	240	1 350
2024	470	520	300	1 290

Manba: <https://hamkorbank.uz/> ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Jadvaldan ko‘rinadiki, muammoli kreditlarning asosiy qismi jismoniy shaxslar va kichik biznesga to‘g‘ri kelmoqda. 2020–2021-yillarda jismoniy shaxslarning kreditlarini qaytarishda muammolar ko‘proq bo‘lgan bo‘lsa, 2022–2024-yillarda kichik biznes kreditlarida muammoli kreditlarning salmog‘i oshib borgan. Bu holat kichik tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy barqarorligi yetarlicha mustahkam emasligini ko‘rsatadi. Korporativ mijozlarda ham muammoli kreditlar hajmi asta-sekin ortib borgan bo‘lsada, ularning umumiy ulushi bank uchun nisbatan past bo‘lib qolmoqda.

O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, “Hamkorbank” ATBda muammoli kreditlarning kamayishi uchun kompleks yondashuv qo‘llanilmoqda. Jumladan, mijozlar bilan ishlashda raqamli monitoring tizimlari joriy qilinib, qarzдорlarning moliyaviy intizomi muntazam kuzatilmoqda. Shuningdek, kreditlarni qayta restrukturizatsiya qilish va muddatlarini cho‘zish orqali bank mijozlarning moliyaviy barqarorligini tiklashga yordam bermoqda. Natijada, 2024-yilda muammoli kreditlar ulushi 3,4% gacha kamaygan. Bu esa bankning kredit riskini boshqarish samaradorligi oshganini va xalqaro standartlarga yaqinlashayotganini anglatadi.

Muhokama: Muammoli kreditlarning asosiy qismini jismoniy shaxslar va kichik biznes subyektlari tashkil qilgani e’tiborga molikdir. Bu holat qarzдорlarning moliyaviy savodxonligi yetarli emasligini, biznes loyihalarining yetarlicha barqaror emasligini va tashqi iqtisodiy omillarning ta’siri kuchli ekanini ko‘rsatadi. Banklar uchun kreditlash jarayonida nafaqat moliyaviy resurs ajratish, balki qarzдорlarga maslahat, konsalting va trening xizmatlarini ham ko‘rsatish muhim ahamiyat kasb etadi.

Restrukturizatsiya jarayonlari bank amaliyotida muhim rol o‘ynadi. To‘lov muddatlarini uzaytirish, foiz stavkalarini pasaytirish, qarzдорlik grafigini qayta tuzish kabi choralar ko‘plab mijozlarning qarzlarini qaytarish imkoniyatini oshirdi. Shu bilan birga, sud-ijro mexanizmlarini kuchaytirish, ijro jarayonlarini tezlashtirish va kreditlarni sug‘urtalashni keng qo‘llash ham bankning muammoli aktivlarini kamaytirishga xizmat qildi.

Muhokama natijalari shuni ko‘rsatadiki, “Hamkorbank” ATBda qo‘llanilayotgan chora-tadbirlar ijobiy natija bergan bo‘lsa-da, yanada mukammallashtirish talab etiladi.

Kelgusida kredit risklarini baholashda sun'iy intellekt va prognozlash algoritmlaridan foydalanish, real vaqt rejimida mijozlarning moliyaviy ko'rsatkichlarini kuzatib borish hamda kredit sug'urtasini kengaytirish muammoli kreditlar ulushini yanada qisqartirishi mumkin. Shu jihatdan, bankning kelgusi strategiyasi xalqaro tajriba va zamonaviy texnologiyalarga asoslanishi zarur.

Xulosa. O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, muammoli kreditlar banklarning moliyaviy barqarorligi va kreditlash samaradorligini belgilovchi eng muhim omillardan biridir. "Hamkorbank" ATB misolida 2020–2023-yillarda muammoli kreditlar hajmi ortib borgan bo'lsa-da, 2024-yilda ularning ulushi kamaygani bank tomonidan amalga oshirilgan restrukturizatsiya, monitoring tizimlarini raqamlashtirish va mijozlar bilan faol muzokaralar olib borish natijasida erishilgan ijobiy natija sifatida baholanishi mumkin. Shu bilan birga, muammoli kreditlarni kamaytirish jarayonida mijozlarning moliyaviy savodxonligini oshirish, kichik biznes subyektlariga moslashuvchan kredit siyosatini qo'llash, kredit risklarini sun'iy intellekt yordamida prognozlash va kredit sug'urtasini keng joriy etish kelgusida muhim yo'nalishlar bo'lib qoladi. Mazkur yondashuvlar nafaqat "Hamkorbank" ATB, balki butun bank tizimi uchun moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash va mijozlar ishonchini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Isakov, O. (2024). Factors Affecting Non-Performing Loans: Evidence from Commercial Banks in Uzbekistan. *Journal of Economics and Financial Analysis*, 8(2), 1–21.
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti olimlari (2022). VAR modeli asosida muammoli kreditlarning makroiqtisodiy determinantlari. *TDIU Ilmiy axborotlari*, 4(1), 55–68.
3. Kurbonov, S. (2022). Compliance, Risk Management and Audit in Uzbekistan Banks. *Kursiv Media*, Tashkent.
4. Avgouleas, E. & Goodhart, C. (2017). Utilizing AMCs to tackle Eurozone's legacy non-performing loans. *European Economy – Banks, Regulation and the Real Sector*, 1(2017), 97–112.
5. European Systemic Risk Board (2017). Resolving non-performing loans in Europe. Frankfurt: ESRB Publications.
6. Karadima, M. & Louri, H. (2020). Does bank market power affect non-performing loans? *International Review of Financial Analysis*, 72, 101567.
7. European Central Bank (2020). COVID-19 and non-performing loans: Lessons from past crises. *ECB Research Bulletin*, 61, 1–12.
8. Balgova, M., Nies, M. & Plekhanov, A. (2017). The economic impact of reducing non-performing loans. *EBRD Working Paper No.193*. London: EBRD.
9. Chand, S.A., Kumar, R.R. & Stauvermann, P.J. (2023). Determinants of Non-Performing Loans in a Small Island Economy of Fiji. *Journal of Risk and Financial Management*, 16(10), 436.
10. Mishra, A.K., Jain, S., Abid, M. & Manogna, R.L. (2021). Macro-economic determinants of NPAs in India: A panel data analysis. *International Journal of Finance & Economics*, 26(3), 3819–3834.

11. Management Science (2024). Nonperforming Loan Disposals Without Resolution: Evidence from China. Management Science, 70(5), 2950–2971.
12. World Bank (2021). Non-Performing Loans in East Asia and the Pacific: Practices and Lessons in Times of COVID-19. Washington, D.C.: World Bank.
13. Federal Reserve Bank of New York (2019). Loan Performance and Bank Stability: Evidence from U.S. Commercial Banks. FRBNY Staff Reports, No. 885.
14. <https://hamkorbank.uz/>
15. <https://cbu.uz/>